

---

## ICHIMLIK SUVI TARMOG'I HAR BIR XONADONGA KIRIB BORADI



### **ICHIMLIK SUVI TARMOG'I HAR BIR XONADONGA KIRIB BORADI**

Aytish lozim, tumanimizda aholini ichimlik suvi bilan ta'minlash maqsadida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Qishning yaxshi kelgan ob-havosidan foydanlangan holda, soha xodimlari tumanimiz hududida bu yo'nalishda ko'p arzirli ishlarni bajarishdi.

Prezidentimizning 4798-sonli qarori asosida amalga oshirilayotgan bu ishlar 1-sektor hududida, ayniqsa, G'aznov mahalla fuqarolar yig'inida e'tirof etishga loyiq. Mahallaning "Mavjidaryo" ko'chasida ichimlik suvi tarmog'ini tortish ishlari oxiriga yetkazildi.

Agar ichimlik suvi ta'minoti yo'lga qo'yilsa, mazkur ko'chadagi barcha xonadon egalari bu ne'matdan foydalana olishadi. Chunki ichimlik suvi tarmog'i har bir xonadonga kirib borgan.

**So'x tumani hokimligi Axborot xizmati**

2022-02-01 09:42:31